

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY JIHATLARI

To'rayeva Nafisa Odilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tamoyillarini ishlab chiqish usullarini o'rganishdan iborat. Bunda mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotni raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan, shuningdek, kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantrish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ularning tahlili yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, boshqaruv, an'anaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, yangi iqtisodiyot, raqamlashtirish, kichik biznes reabilitatsiyasi.

Abstract: The purpose of this study is to ensure the use of digital technologies in small business entities and to study the methods of developing the principles of forming the digital economy. It highlighted the importance of digitization of the economy in the socio-economic development of countries, as well as scientific-theoretical views on the development of the use of digital technologies by small business entities, suggestions and recommendations on the use of digital technologies by small business entities and their analysis.

Key words: small business, management, traditional economy, digital technologies, new economy, digitization, small business rehabilitation.

Аннотация: Целью данного исследования является обеспечение использования цифровых технологий в субъектах малого предпринимательства и изучение методов разработки принципов формирования цифровой экономики. Освещена важность цифровизации экономики в социально-экономическом развитии стран, а также научно-теоретические взгляды на развитие использования цифровых технологий субъектами малого предпринимательства, предложения и рекомендации по использованию цифровых технологий малыми предприятиями. хозяйствующие субъекты и их анализ.

Ключевые слова: малый бизнес, менеджмент, традиционная экономика, цифровые технологии, новая экономика, цифровизация, реабилитация малого бизнеса.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bozorining globallashuv jarayonida masofaviy xizmat ko'rsatish va onlayn savdolar jadal rivojlanib borishi natijasida mijozlar uchun mazkur xizmatlardan yer yuzini istalgan nuqtasidan turib erkin foydalanish imkoniyati tug'ilmoqda. Hozirda "5,19 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu butun dunyo aholisining 64,5 foiziga tengdir. Global miqyosda internet foydalanuvchilari soni yiliga 2,1 foizga o'sib bormoqda, biroq ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yildan yilga o'sish ancha yuqori. O'rtacha global internet foydalanuvchisi har kuni 6 soat 40 daqiqani onlayn rejimda o'tkazmoqda" [1]. Bunday holatlardan kelib chiqib kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarini raqamli transformatsiya qilishi talab etiladi va mijozlar talabi va raqobatchilar bilan teng bo'lish zaruratini tug'diradi. Umuman olganda, raqamli transformatsiyalashda texnologiyalardan foydalanish kichik biznes subyektlarini o'zgaruvchan bozorlarga javob berish va innovatsiyalarni kuchaytirishda yanada tezkor bo'lishiga yordam beradi va shu bilan ularni yanada barqarorlashtiradi. "2022-yilda raqamli transformatsiyaga sarflanadigan xarajatlar 1,6 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa 2026-yilga borib, raqamli transformatsiya uchun global xarajatlar 3,4 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda" [2]. Biroq ko'pgina kichik biznes subyektlarida bu o'tishni yaxshi rejalashtirish uchun zarur bo'lgan vaqt, mablag'lar, to'g'ri raqamli tizimlarni tanlash, raqamli ko'nikmalarni oshirish, to'g'ri himoya va xavfsizlikni rivoj-



Iantirish hamda ushu yangi vositalarning imkoniyatlarini to'liq moslashtirish va tushunish imkoniyatiga yetarli darajada ega emas. Kichik biznes subyektlarida zamonaviy va raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish hanuzgacha muammo bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilandi. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullar, korrelyatsion-regression va empirik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI (ASOSIY QISM)

Jahonda raqamli texnologiyalar kompaniyalarga, ayniqsa, kichik biznes subyektlarining yangi bozorlarga chiqish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etmoqda, bu ularga mintaqaviy va global raqamli ta'minot zanjirlarida ishtirok etishni yanada jadallashtirmoqda. Bu borada har bir raqamli texnologiya amalga oshirilgandan so'ng, uning samaradorligini tahlil qilish va korxonaga qo'shimcha foya keltirishi yoki byudjetga zarar yetkazmasligi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda kichik biznes subyektlari faoliyatida CRM (Customer Relationship Management), ERP (Enterprise Resource Planning), MES (Manufacturing Execution System), PLM (Product Life-cycle Management), MDM (Master Data Management), ERM (Enterprise Risk Management) kabi raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq muammolarga hamda ularni bartaraf etishga ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib "raqamli texnologiyalar" tizimini tubdan yangicha turlarini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturida: "... kichik va o'rta biznes korxonalari o'rta-sida bevosita iqtisodiy aloqlarni yo'nga qo'yish hamda yagona elektron bazani yaratish va uning qo'shimcha modullarini ishlab chiqish bo'yicha biznes jarayonlarni o'rganish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish..."^[3] kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida "IT-park asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun "aqli yechimlar"ni ishlab chiqishni rag'batlantirish va biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Biznes-navigator" elektron portalini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash va ishlash mexanizmini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'p jihatdan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Uzoq vaqt davomida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi keskin o'zgarishlarga olib keldi, iqtisodiyot va umuman jamiyat rivojlanishining traektoriyasini belgilab berdi. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli tenologiyalarni shakllantirish aksariyat mamlakatlar uchun ustuvor vazifalardan birdir. So'nggi yillarda ta'sir ko'lami va chuqurligi tufayli raqamli texnologiyalarning yangi avlodini yaratish natijasida biznes va ijtimoiy faoliyat modellarini o'zgartirish to'lgirida ko'tarilish kuzatildi. Bunday texnologiyalarga sun'iy intellekt, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Olimlarning fikriga ko'ra, kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli tenologiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini 40 foizga oshirishi mumkin. Yaqin kelajakda yangi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish alohida korxonalar va umuman mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi, shuningdek raqamlashtirish uchun infratuzilma va huquqiy muhitni (raqamli huquq) shakllantiradi.

Shubhasiz, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni yaratish va joriy etish vektori yaqinda davlat va korporativ darajada milliy rivojlanishning asosiy yo'nalishi maqomini oldi. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichi tubdan yangi texnologik va tashkiliy, boshqaruva tahdidlarini keltirib chiqaradi, nazariy asosni yaratishni, yangi asosiy tushunchalar ta'riflarining konseptual va kategorik texnologiyalari hamda operatsion tizimlarini shakllantirishni, shuningdek, qonunchilikning to'liq me'yoriy-huquqiy bazasi va mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi.

"Raqamli iqtisodiyot va "raqamli pul" tushunchalari birinchi marta 25 yil oldin AQShning Massachusetts texnologiya instituti professori Nikolas Negroponte tomonidan kiritilgan"^[4]. Biroq uning konseptual dizayni uchun muhim to'siq yaratishga hissa qo'shadigan aniq ta'rif hali ham mayjud emas.

Jahon banki guruhi Prezidenti Jim Yong Kimning so'zlariga ko'ra, "insoniyat hozirda axborot-kommunikatsiya inqilobini boshdan kechirmoqda. Uning fikricha, mobil telefonga ega bo'lgan eng kambag'al uy xo'jaliklari soni qulay yashash sharoitlari yoki ichimlik suvi bilan ta'minlanganlarga qaraganda ko'proq"^[5] deb keltiradi.



Chet ellik iqtisodchi olim P. Kirillovning qarashlaricha “raqamli iqtisodiyot fan va texnika taraqqiyotining oqibatlaridan biri sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda tarqatishni raqamli internet texnologiyalari muhitiga o’tkazishni nazarda tutadi”^[6].

V. A. Utkina, Y. V. Emshanovalarning fikricha “raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning yangi bosqichida asosiy xavf va tahididlardan biri bu kompaniyalar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy platformalar va odamlar o’rtasidagi munosabatlarning miqdori, sifati va xilma-xilligining sezilarli o’sishidir”^[7]. Ushbu o’sish tranzaksiyalar soni va ma’lumotlar hajmining eksponent dinamikasi bilan birga keladi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarning yanada murakkab integratsiyasiga olib keladi, uning oqibatlarini insoniyat hali baholamagan. Ushbu jiddiy oqibatlar va o’zgarishlar jamiyatdan har bir shaxsdan yangi vakolatlar, qobiliyat va ko’nikmalarni, shuningdek, kundalik hayot fenomenida yangi texnologiyalardan foydalanishga moslashishni talab qiladi. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotidagi global tendensiyalarga javob beradigan ta’lim dasturlarini shakllantirish, shuningdek, yuqori darajadagi “raqamli savodxonlik”ni ta’minlaydigan individual ta’lim traektoriyalarini shaxsiylashtirish jarayonlari alohida ahamiyatga ega.

Xususan, mamlakatimizda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”^[8]gi PF–60-sonli farmonida “milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish”^[9] vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali xususiy sektorning YalMDagi ulushini 80 foizga va eksportdagи ulushini 60 foizga yetkazish imkonini beradi. Kichik biznes subyektlarining jadal rivojlanishida faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etib borish ham muhim hisoblanadi. Vaholanki, jahon iqtisodiyotidagi raqobatlashuv jarayonlarining keskinlashuvi kichik biznes subyektlari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi. Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va insonlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi^[10] qarorida “2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar, ushu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish”^[11] vazifasi qo’yilgan.

Shuningdek, “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish Davlat dasaturida: “Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma’lumotlar, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalarini qo’llagan holda, an’anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin”^[12] degan fikr bildirilgan.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot – kelajak. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi ko’p jihatdan raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Sanoat 4.0 inqilobiga moslashish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan, kichik biznes subyektlari faoliyatiga joriy etishni qanchalik qisqa fursatda hal etishimizga chambarchas bog’liq. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali tashkil etish raqamli texnologiyalar sohasida yetarli kompetensiyalarga ega bo’lgan yetuk kadrlarga borib taqiladi. Bu borada ham tizimli tadbirlar yo’lga qo’ylganligini ta’kidlash zarur.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishning tezroq kirib kelishini xohlasak, raqamlashtirish ta’sirida turmushimizda turli qulayliklar paydo bo’lishini istasak, raqamlashtirish tatbiqida, albatta, tizimli yondashuv lozim. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga o’n yildan buyon elektron hukumat tizimini kiritishga intilib kelamiz. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirishga oid dasturlar xalqimiz, qolaversa, tadbirkorlarimiz xohish-istiklarini to’g’ri anglash imkonini beradi. Tabiiyki, ushu dasturlarni yanada kengaytirish, takomillashtirish kerak. Biroq ayrim muammolar borki, ularning yechimini qisqa fursatda topish talab etiladi.

Birinchidan, raqamlashtirish bu “ma’lumotlar ombori”dir, ma’lumotlar juda katta hajmdan iborat. Ikkinchidan, bizda “ulkan ma’lumotlar” oqimini boshqarish, saqlash va qayta ishlash turli platformalarni kengaytirish muhim. Uchinchidan, esa mazkur dasturlar ijrosini ta’minlashda amalga oshirish mexanizmlari hamda moliyalashtirish manbalari ko’rsatilgan bo’lsa-da, monitoring jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirilishi muhim, deb hisoblaymiz.

Raqamli texnologiyalar bir necha sabablarga ko’ra kichik biznesni tiklashga yordam beradi. Birinchidan, mobil qurilmalarning joriy etilishi tufayli odamlar uchun raqamlashtirishdan foydalanish osonlashdi. “Raqamli texnologiyalarga o’tish faqat kelgusi yillarda tezlashadi, chunki dunyoda mobil qurilmalardan foydalanuvchilar soni 2021-yilda 6,38 milliarddan 2026-yilda 7,52 milliardga ko’payishi kutilmoqda”^[13].

Ikkinchidan, odamlar xarid qilish usuli yillar davomida o’zgardi. Muntazam do’konlar har doim rol o’ynaydi, ammo xaridlarning kelajagi tobora ko’proq onlayn savdodan orqada qolmoqda.

Iyun oyida “Morgan Stanley global elektron tijorat bozori bugungi kunda \$3.3 trln. dan \$5.4 trln. ga 2026-yilda o’sishini taxmin qildi, bu to’rt yil ichida 60% dan”^[14] oshadi.



Kichik biznes uchun raqamlashtirishning afzalliklari juda kattadir. Kuchli raqamli strategiyaga ega bo'lgan korxonalar inqirozni yengish uchun yaxshiroq tayyorlangan va diversifikatsiya qilingan, chunki ularning onlayn kanallari do'kon ichidagi xaridlarning yo'qolishini yumshatgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, o'zlarining raqamli kelajagiga sarmoya kiritgan korxonalar bir qator boshqa uzoq muddatli imtiyozlarga ega bo'lishmoqda, jumladan, aloqalarni yaxshilash va jahon bozorlariga kirishni yaxshilash kabilardir.

Kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydag'i "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"^[15] Qonunining 8-moddasiga asosan "kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda o'zga mol-mulkini shartnomalar shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o'zga mol-mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirish"^[16] huquqlariga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli o'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"^[17] gi PF-6079 sonli Farmonida "Kichik biznes va kam ta'minlangan aholiga huquqiy maslahat berish, ularning taklif va tashabbuslarini qabul qilishning yangi tizimini joriy etish, advokatlar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni tayyorlash imkoniyatini yaratish maqsadida, o'z-o'ziga huquqiy xizmat ko'rsatish "Legal Tech" axborot tizimini joriy etish". "Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafillik va kafolatlar, shuningdek, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya berish to'g'risida elektron shartnomalar tuzish, real vaqt rejimida kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish va ularning ijrosi holatini kuzatish kabilarni nazarda tutuvchi "Tadbirkor" axborot tizimini joriy etish"^[18] belgilab berilgan.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash bo'yicha xalq ta'limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlantish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"^[19]gi 373-tonli Qaroriga ko'ra "tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholash quyidagi yo'nalishlardagi asosiy indekslari" ishlab chiqildi.



1-rasm: Tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholashning asosiy indekslari¹

Yuqorida keltirilgan indekslarga, asosan, "hududlarda raqamli iqtisodiyot holatining reytingi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, mehnatga layoqatli aholi qatlamida ish bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqa yo'nalishlardagi indikatorlarni hisoblash asosida aniqlanadi. Reyting baholash indekslari, baholash tartibi hamda baholarni hisoblash uslublari tashkilotlarda raqamli transformatsiya va hududlarda raqamli iqtisodiyotni reyting baholash metodikalarida batafsil tavsiflanadi".

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi aniqlangan indikatorlarning miqdoriga qarab, 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanadi hamda "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratiladi.

Indikatorlarni reyting baholash natijalariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi reyting balli bo'yicha:

71 balldan 100 ballgacha baholangan tashkilot – "yashil";

55 balldan 71 ballgacha baholangan tashkilot – "sariq";

55 balldan past baholangan tashkilot – "qizil" deb topiladi.

¹ Muallif ishlansasi



1-jadval: Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasini reyting baholashni amalga oshirish yo'nalishlari [22]

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasi bo'yicha statistik va tahliliy ma'lumotlarni NIS. UZ-axborot tizimiga kiritadi.	Hisobot davri yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar
2-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	NIS. UZ-axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar asosida reyting baholashni amalga oshiradi va hududlarni reyting baholash yakunlari asosida reytingni shakllantiradi.	Hisobot davri yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar
3-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Reyting natijalari va boshqa tahliliy materiallarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish	Hisobot davri yakuni bo'yicha keyingi oyning 30-sanasiga qadar

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-som qaroriga 1-ilova "Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlarida raqamli transformatsiya hamda hududlarda raqamli iqtisodiyot holatini reyting baholash tartibi to'g'risida" gi Nizom

Reyting baholash natijalari bo'yicha tegishli tashkilotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasiga ko'ra Raqamli texnologiyalar vazirligining taklifiga asosan "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi bayoni bilan:

- hisobot yilida "yashil" deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo'yicha o'rinsarlari keyingi hisobot davri uchun reyting baholash natijalari e'lon qilinguniga qadar har oyda lavozim maoshlarining 30 foizi miqdorida rag'batlantiriladi;
- hisobot yilida ikki marta "qizil" deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo'yicha o'rinsbosarlariga qonunchilikda belgilangan tartibda jarima qo'llaniladi yoki jarima qo'llash haqida taklif kiritiladi. Reyting baholash natijalari bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi "yashil" deb topilgan tashkilotlarning ijobji tajribasini boshqa tashkilotlar o'tasida ommalashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rildi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyov ta'kidlaganidek: "Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasan, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi" [22].

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyovning 2021-yilning 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [23] qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish uchun muhim qadam bo'ldi. Mazkur qarorga muvofiq, "Sun'iy intellektini joriy qilishning muhim jihatlari – huquqiy rejim, institutsion asoslar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro hamda milliy standartlar, sun'iy intellekt joriy qilinadigan ustuvor soha va tarmoqlar, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari qamrab olingan" [24].

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston–2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va kichik biznes subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqr egallagan, intellektual salohiyatlari kadrlarni yetishtirish, shu orqali mamlakatda "xavfsiz axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Bizning fikrimizcha, kiberfazo va raqamli muhitni tartibga solish masalalari hali ham kam o'rganilgan va munozarali bo'lib qolmoqda. Ilmiy sohada alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, sanoat va hududlarning innovatsion o'sishiga erishish uchun kompaniyalarning raqamli salohiyatini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional jihatlari ilmiy izlanishlarda e'tiborsiz qolmoqda, muammolar hal qilinmagan va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari baholanmagan, raqamli iqtisodiyotning roli va o'rni, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning umumiy tizimi o'z aksini topmagan.



2. Raqamli ekotizimlar tabiiy tizimlardan farqli o'laroq sun'iydir va raqamli texnologiyalar tashqi muhitining noaniqligi va o'zgaruvchanligi sharoitida ularning rivojlanishining o'ziga xos "akselator" vazifasini bajaradi. Bu har qanday kichik biznes subyektlari faoliyatining hajmidan qat'iy nazar, boshqa narsalar qatori faoliyatga raqamli texnologiyalar zarurligiga olib keladigan tashqi omillar ta'siri ostida ishlaydi degan xulosani shakllantiradi. Raqamli biznesning butun ekotizimi biznes subyektlarining o'ziga xos tizimi IT-texnologiyalarni rivojlantirish, ushbu texnologiyalar to'g'risida ma'lumotni kichik biznes subyektlariga to'g'ridan to'g'ri yetkazish tartibini amalga oshirish samaradorligini oshiradi va korxonaning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.
3. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat texnologik, moliyaviy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish, xodimlarning raqamlashtirishni joriy etishga tayyorgarlik darajasini baholash zarurligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarni ishlab chiqish hamda joriy etishni boshqarish uchun tashkiliy madaniyatga kiritilgan normalarning izchil ro'yxatini ishlab chiqishga qaratilgan masalalar hal qilinishi kerak.
4. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribani amaliyatga joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. <https://datareportal.com/global-digital-overview#: Digital Around the World>.
2. [https://www.statista.com/statistics/268938/global-it-spending-by-segment/ Global IT spending forecast 2012–2024](https://www.statista.com/statistics/268938/global-it-spending-by-segment/).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. Н. Неропонтэ Being Digital (фундаментальная статья Николоса Неропонтэ по цифровой экономике за 1995 год, часть 2. [https://habr.com/ru/company/philtech/blog/354418 /](https://habr.com/ru/company/philtech/blog/354418/)
5. Доклад Всемирного банка "Цифровые дивиденды". <http://www.inesnet.ru/2016/01/opublikovan-doklad-vsemirnogo-banka-cifrovye-dividendy/>
6. Кириллов П. Цифровая платформа для интернета вещей: универсальный продукт для умных производств, городов, зданий // Бизнес Территория. 2018. – № 1. – с. 35–36.
7. Уткина В. А., Емшанова Е. В. Основные проблемы развития интернета и онлайн-торговли в России// Молодой учёный. – 2016. – № 11(115). – с. 1031-1033.
8. [https://lex.uz/docs/5841063 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-y. PF–60-son](https://lex.uz/docs/5841063)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni. <http://lex.uz>
10. [https://lex.uz/docs/4800657 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020-y. PQ–4699-son](https://lex.uz/docs/4800657)
11. [https://lex.uz/docs/4800657 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020-y. PQ–4699-son](https://lex.uz/docs/4800657)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni. <http://lex.uz>
13. [https://lex.uz/docs/5030957 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 y PF–6079-son](https://lex.uz/docs/5030957)
14. <https://www.morganstanley.com/>
15. [https://lex.uz/docs/2006789 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ–328-son.](https://lex.uz/docs/2006789)
16. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydag'i "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni. Toshkent sh., 2012-yil 2-may, O'RQ–328-son.
17. [https://lex.uz/docs/5841063 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-y. PF–60-son](https://lex.uz/docs/5841063).
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 05 oktyabrdagi "Raqamli o'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida PF–6079 sonli Farmoni.
19. [https://lex.uz/ru/docs/5458249 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2021-y. 373-son](https://lex.uz/ru/docs/5458249)
20. Muallif ishlanmasi.
21. [https://lex.uz/ru/docs/5458249 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2021-y. 373-son](https://lex.uz/ru/docs/5458249)
22. <https://yuz.uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yol>
23. [https://lex.uz/docs/5297046 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021-y. PQ–4996-son](https://lex.uz/docs/5297046)
24. <https://uzlidep.uz/news-of-party/11083>

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.